Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
Yusupova Nozima Mahamadaliyevna	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джами.....	2342
Каримов Жамшид	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
Matchanova Dilbar Yusupboyevna	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
Jabborova Malohat Azimovna	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
Axmatov M. M.	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
Ergashev Murodbek Ikromovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
Sultanova Shahnoza Mirxalilovna	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
Raxmonova E'zoza Sherzod qizi	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
Yaqubova Dinora Bahodirovna	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
X. K. Qarshiboyeva	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
O'rinova Maftuna No'mon qizi	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
Xudoykulova Nilufar Xamdorovna	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
Nazarova Marg'uba Gulamovna	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
Mavlanova Saidaxon Umarovna	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
Yuldashev Bahodir Narzullayevich	



Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons in the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	



FITRAT ASARLARIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING MA'NAVIY- MA'RIFIY ASOSLARI

Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrası mudiri, dotsent v.b.,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy mazmuni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Fitrat o'z ijodida millatning ma'naviy uyg'onishi, yosh avlodni ilm, axloq va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashni milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida asoslab bergan. Tadqiqotda "Rahbari najot", "Munozara", "Oila", "Sayha" kabi asarlardagi g'oyaviy yo'nalishlar tahlil qilinib, Fitratning pedagogik va ma'rifiy qarashlari yoritiladi hamda ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Fitratning ta'lim, tarbiya va ma'naviyatga oid qarashlari milliy o'zlikni shakllantirishda muhim nazariy-amaliy dasturulamal sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, ma'naviyat, ma'rifat, vatanparvarlik, tarbiya, milliy o'zlik, yoshlar, ta'lim, milliy uyg'onish, meros.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the spiritual and educational foundations of patriotism reflected in the works of Abdurauf Fitrat. In his writings, Fitrat emphasized that the spiritual awakening of the nation and the education of the younger generation in the spirit of knowledge, morality, and love for the homeland are fundamental prerequisites for national development. The study examines the ideological orientations presented in Fitrat's major works, including Rahbari Najot, Munozara, Oila, and Sayha, and analyzes their significance within the context of the modern educational process. Particular attention is paid to Fitrat's pedagogical and enlightenment-oriented legacy as an essential factor in shaping national identity.

Key words: Abdurauf Fitrat, spirituality, enlightenment, patriotism, education, morality, national identity, youth, national revival, heritage.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ духовно-просветительского содержания идей патриотизма, отражённых в произведениях Абдурауфа Фитрата. В своих трудах Фитрат подчёркивал, что духовное пробуждение нации, а также воспитание молодого поколения в духе науки, нравственности и любви к Родине являются ключевыми условиями национального развития. В исследовании рассматриваются идейные направления, представленные в таких произведениях, как "Ражбари најот", "Мунозара", "Оила", "Сайха", а также анализируются их значение в современном образовательном процессе. Особое внимание уделяется педагогическому и просветительскому наследию Фитрата как важному фактору формирования национальной идентичности.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, духовность, просвещение, патриотизм, воспитание, национальная идентичность, молодёжь, образование, национальное возрождение, наследие.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni uyg'otish, xalqni jaholatdan xalos etish va milliy o'zlikni tiklash g'oyalariga tayanib shakllandi. Ushbu harakatning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zining boy ilmiy, adabiy va pedagogik merosi orqali xalqni ma'rifat yo'lga boshladi. Uning asarlarida millat ravnaqi uchun eng muhim omil sifatida ilm, axloq va vatanparvarlik g'oyalari ustuvor deb baholangan.

Fitratning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi zamon uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. U yoshlarda milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni ta'lim-tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblagan. Ayniqsa, "Rahbari najot" va "Munozara" asarlarida ta'lim-tarbiya tizimi orqali jamiyatni yangilash, xalq ongini o'zgartirish g'oyasi ilgari surilgan. Shu bois, Fitratning pedagogik qarashlarini o'rganish, xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Abdurauf Fitrat Buxoriy – tug‘ilgan yili hijriy 1304 (ya’ni milodiy 1886-yilga to‘g‘ri keladi), deb yozadi”. Shu faktlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Fitratning Jalil Boybo‘latovga yozgan ochiq xatida keltirilgan “Tarjimai hol”ida texnik xato ketgan bo‘lsa kerak ^[1].

Fitrat XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarining umumfalsafiy merosi tarixida sezilarli iz qoldirgan ma’rifatparvar-jadidlarning eng yirik namoyandalaridan biridir. O‘zining boy ma’naviy merosi tufayli u jahon falsafasi xazinasida alohida ehtiromga sazovor bo‘lgan shaxs sifatida tanilgan. Uning Britaniya ensiklopediyasida o‘zbek faylasuf olimi sifatida qayd etilganligi ilmiy salohiyatini yanada yuksak baholash imkonini beradi. Fitrat ijodi bilan uzoq yillardan buyon shug‘ullanib kelayotgan taniqli amerikalik olim Edvard Olvort uning haqida shunday deydi: “Fitrat o‘z zamonasining eng bilimdoni, faylasufi va o‘z davrining madaniy markeri edi”.

Fitratning Hind sayyohi sifatidagi qiyofasi va faoliyati uning o‘ziga xos siymosini yaratganini ta’kidlash lozim. Sayyohlik jarayonidagi harakatlar va qarashlar Fitratning o‘ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi. Mazkur asarda Fitrat dunyoqarashining dastlabki davri, yangi g‘oyalar, taraqqiyot, Yevropa madaniyatiga munosabat, o‘lkadagi jaholat va g‘aflatga qarshi kurash, o‘qish, mehnat, g‘ayrat va shijoatga da’vat etish hamda xalqni baxtiyor qilishga jamiyat e’tiborini qaratish kabi tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Fitrat o‘z xalqi, millati va Vatani taqdiri haqida doimo qayg‘urib yashagan bo‘lib, bu fikr uning barcha asarlarida yetakchi g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mustamlakachilik siyosatiga qarshi qarashlari ham, taraqqiyot va mustaqillikka intilish borasidagi faoliyati ham aynan shu negizdan kelib chiqadi.

“Madaniyat degan g‘arbli alvasti”, “Sho‘r suvlardan chiqib kelgan bir maymun”, “Ingliz” singari iboralarga tayanib, ayrim kaltabin tanqidchilar Fitrat Sharqni G‘arbgacha qarama-qarshi qo‘yadi, degan fikrlarni XX asrning 80-yillarida ham ilgari surishgan. Holbuki, Fitrat va umuman jadidlar millatlarni hech qachon bir-biriga qarshi qo‘ygan emas, balki mustamlakachilikka qarshi chiqqan. U o‘z asarlarida madaniyatdan o‘rnak olish rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tobe bo‘lish degani emasligini doimo uqtirib borgan.

Abdurauf Fitratning adabiy taxallusi bo‘lgan “Fitrat” so‘zining kelib chiqishi va ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib, ilmiy lug‘atlarda turlicha talqin qilinadi. Qizig‘i shundaki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Fitrat” so‘zi uchramaydi (36). “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da esa “Fitrat” so‘zi “tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish” ma’nolarida izohlanadi. Masalan: “Muvofiqdurur asli fitrat aro, kim mayl o‘ldi bir-birga nisbat aro”.

Xullas, “Fitrat” so‘zining birinchi lug‘aviy ma’nosi “tabiat”, “insonning tug‘ma (Alloh ato etgan) tabiiy sifati, xislati” bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi “xilqat” yoki “yaratmoqlik”dir. Uchinchi ma’nosi esa majoziy, ko‘chma ma’noda “aql-u zakovat”ni anglatib, shuningdek, “tug‘ma iste’dod” va “porlamoq” mazmunlarini ham ifodalaydi.

Abdurauf Fitrat yoshlik chog‘larida, talabalik yillarida yozgan ayrim g‘azallarida “Mijmar” (xushbo‘y narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo‘llagan bo‘lsa-da, “Fitrat” nomiga bir umr sodiq qolgan. Hatto rasmiy idoralardagi xizmat faoliyati davomida ham, xavfsizlik qo‘mitasi hujjatlarida va hibsga olingan paytdagi rasmiy yozuvlarda ham “Fitrat” nomi qayd etilgan.

Fitratning ilmiy va dunyoqarash jihatidan shakllanishida ota-onasining o‘rni muhim bo‘lgan. Otasining savodli, ma’rifatli va ko‘p sayohat qilgan savdogar bo‘lishi, onasining adabiyotga qiziqishi va ilmiy bilimi Fitratning bilim olishga va mustaqil fikrlashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirgan. Abdurahmon esa ilmiy muhit va matbuotni yaxshi bilgan holda Fitratga keng imkoniyatlar yaratgan.

Fitratning Turkiyaga qilgan sayohati va u yerda kechgan yillari uning shaxsiy va ilmiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U Turkiyada tahsil olayotgan davrida zamonasi uchun dolzarb bo‘lgan ilmiy-ijtimoiy g‘oyalarni chuqur anglagan. Istanbulda o‘qigan yillari davomida Fitratning o‘ziga xos dunyoqarashi shakllanib, u turkiy xalqlarning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlariga qiziq boshlagan. Bu davrda Fitrat nafaqat o‘rganish, balki o‘z ilmiy qarashlarini shakllantirish va yangi g‘oyalar bilan tanishishga intilgan. Shuningdek, u Buxorodagi jamiyat hayotini o‘zgartirish va unga amaliy yordam berishni orzu qilgan.

Fitratning o‘sha davrdagi ijtimoiy faoliyati, jumladan, “Tarbiyayi atfol” jamiyatiga a’zo bo‘lishi hamda yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan g‘oyalari uni ijtimoiy adolat, ilmiy taraqqiyot va milliy mustaqillik yo‘lida faol harakat qilishga undagan. U yoshlarni Turkiyaga o‘qishga yuborish orqali yangi fikr va madaniyatlarni o‘zlash-tirishga, keyinchalik esa ularni o‘z yurtiga olib kelishga intilgan.

Turkiyada kechgan yillardan so‘ng Fitratning Vatanga qaytishi Buxoro hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. U jamiyatni yangilash, bilimni keng targ‘ib etish, yoshlarni o‘zgarishlarga ruhlantirish va mustamlakachilikka qarshi kurashga tayyor shaxs sifatida maydonga chiqdi. Fitratning dunyoqarashi, g‘oyalari va faoliyati keyingi avlodlar uchun ibrat bo‘lib xizmat qildi. Uning o‘z zamonasi uchun ilg‘or hisoblangan qarashlari, ilmiy izlanishlari va ijtimoiy yangilanishga bo‘lgan intilishi tarixiy o‘zgarishlar boshlanishining muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Mahbuba Rahim qizining taqdiri haqidagi mulohazalarni kengroq nuqtai nazardan ko‘rib chiqish mumkin. Agar Fitrat qatag‘on qilinmaganida, Mahbuba Rahim qizining she’riyatiga bo‘lgan e’tibor va hurmat, shubhasiz,



yanada oshgan bo'lur edi. U, ehtimol, o'zining adabiy faoliyatini davom ettirib, Buxoro va hatto Markaziy Osiyo miqyosida mashhur shoiraga aylanishi mumkin edi ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yoritib berishda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, ma'lumotlar tahlili hamda boshqa tahlil usullaridan maqsadli foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fitratning o'ziga xos intellektual muhitda tarbiyalanganligi va ona Nastarbibi tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi uning dunyoqarashi hamda tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Mahbuba Rahim qizi esa bunday o'quv va madaniy muhitdan ilhom olish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lgan bo'lar edi. Fitratning ilm-fan va madaniyatga bo'lgan o'ziga xos yondashuvi, ularni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari Mahbuba uchun muhim motivatsiya manbai bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin ^[3].

Shuningdek, Nastarbibi onaning tarbiyaviy roli va Fitratning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi ahamiyati Mahbuba Rahim qizining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta yordam berishi mumkin edi. Agar Mahbuba o'z she'riyatiga ko'proq e'tibor qaratgan va ijtimoiy hamda siyosiy vositalarga ega bo'lganida, o'sha davr jamiyatining inqilobiy va madaniy o'zgarishlariga yanada faol hissa qo'shishi ehtimoldan xoli emas edi ^[4].

Mazkur tahlil Fitrat va uning atrofidagi muhit ta'siri, Mahbuba Rahim qizining taqdiri hamda ularning ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan olingan misollar bilan boyitilganda, ta'lim-tarbiya va ijodiy faoliyatning ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda qanday o'zgarishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fitratning ilmiy faoliyati nihoyatda keng va xilma-xil bo'lgan. U nafaqat davlat va jamoat arbobi, balki adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim, shoir, muarrix va tarjimon sifatida ham samarali faoliyat yuritgan. Uning ilmiy merosi geografiya, riyoziyot, ilmi nujum, tabobat, tafsir, tasavvuf va boshqa ko'plab fan sohalarini qamrab oladi. Fitrat o'z asarlarida jamiyatni o'zgartirish va ilm-fan orqali boyitish g'oyalarini ilgari surgan.

Fitratning dunyoqarashi va falsafiy yondashuvi, o'qigan va o'rgangan ilmiy manbalarining rang-barangligi uning chuqur va keng fikrlash qobiliyatini namoyon etadi. U zamonasining taraqqiyparvar ulamolari bilan mustaqil ravishda bilim olishga intilgan, Buxorodagi madrasalar bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlardagi ilm-fan yangiliklari bilan tanishgan. Bu holat uning ilmiy g'oyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib, taraqqiyot yo'lida yangi yo'nalishlarni ilgari surishiga imkon yaratgan.

1908-yilda Buxoroda tashkil etilgan jadid maktablari va kechki o'quv kurslari xalq orasida katta shuhrat qozongan. Fitratning talabalik yillarida xorijiy nashrlar bilan tanishishi uning bilim doirasini kengaytirishga va zamonasidan ilgarilab fikr yuritishiga yordam bergan. Ushbu nashrlar va maqolalar jamiyatdagi siyosiy hamda ijtimoiy vaziyatga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, Fitratning bilim olishga bo'lgan intilishi va bilimlarni tarqatishdagi faol roli uning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga qo'shgan hissasini yaqqol namoyon etadi.

Fitratning o'lkadagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga munosabati chuqur va maqsadli bo'lgan. U o'z asarlarida xalq farovonligi va taraqqiyoti uchun kurashni targ'ib etgan, ayniqsa yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Fitrat jamiyatni rivojlantirishda ilm, ma'rifat va madaniyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, qoloqlik va gumrohlikni faqat ilm-fan orqali yengish mumkin, degan xulosaga kelgan.

Fitratning "Bedil" asarida ilm, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga alohida urg'u berilgan. Uning fikricha, faqat ilm va ma'rifat orqali inson o'zini anglaydi, jamiyatni yuksaltiradi va haqiqatga yetadi. Fitratning o'zgarishlarni amalga oshirishga chaqirishi, ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalarini doimiy targ'ib etishi uning asarlarida yaqqol aks etadi.

Fitrat dunyoqarashidagi o'zgarishlar 20-yillardagi materialistik falsafaning ta'sirini ko'rsatadi. Uning materializmga munosabati, insonning moddiy olamdagi o'rni haqidagi qarashlari jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga qarshi kurash ruhini ifodalaydi. U o'z asarlarida ijtimoiy tengsizlik va korrupsiyaning oqibatlarini tanqid qilib, haqiqiy erkinlik va adolatga erishish uchun faol harakat zarurligini ta'kidlaydi.

Fitratning bu qarashlari uning o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilganini hamda ilmiy-falsafiy qarashlari orqali yangi, taraqqiyparvar jamiyat barpo etishga intilganini ko'rsatadi. Uning maqsadi jamiyatni ilm, madaniyat va ma'rifat asosida yuksaltirishdan iborat bo'lgan.

Fitrat fikrlarida 20-yillardagi dunyoqarashi va materialistik falsafaga yondashuvi o'z jamiyatining tarixiy sharoitlarini qayta ko'rib chiqish va sinfiy tizimlarni yaxshilashga intilish bilan namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adolat va tenglik uchun kurashish g'oyalari Turkiston va umuman o'zbek jamiyatida taraqqiyot uchun muhim ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.



Shuningdek, Fitrat hayotiga ta'sir ko'rsatgan omillar, jumladan, uning tahsil olgan madrasasi, mutafakkirlarning ta'siri, yoshlikdan boshlangan ma'rifatga qiziqish, el-yurtga xizmat qilish istagi, jadidchilik harakatining rivoji hamda adabiy va ilmiy faoliyatining yuksak saviyasi haqida ko'plab asarlar yaratilgan.

Fitratning jadidchilik harakatidagi o'rni va uning asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'qituvchilar, talabalar va yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga bo'lgan intilish bilan uzviy bog'liqdir. Uning ilmiy qarashlari, metodologiyalari va ta'limotlari bugungi pedagoglar va tadqiqotchilar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Bu maktablarning yuksalishi va muvaffaqiyatlari Buxoroda jadidchilik harakatining taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Jadidlar yangi ta'lim tizimi va o'qitish usullari orqali ilm-fan bilan bir qatorda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga intildilar.

"Tarbiyayi atfol" jamiyati, ayniqsa, bolalar ta'limi sohasida inqilobiy yangiliklarni joriy etdi. Uning o'qitish metodlari va jadidchilik g'oyalari ijobiy samara berdi. Jamiyatning asosiy maqsadi bolalarga zamonaviy bilimlarni o'rgatish va ularni milliy hamda jahon miqyosida yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat edi. Jadidlar ta'limni diniy bilimlar bilan cheklamay, matematika va tabiiy fanlarni ham qamrab olgan zamonaviy tizimni shakllantirishga harakat qilganlar.

S. Ayniy va A. Munzim maktablarining faoliyati nafaqat Buxoro, balki Turkistonning boshqa hududlarida ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, "Tahzib us-sibyon" asari yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidchilik harakati orqali Fitrat va uning safdoshlari jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qildilar.

Buxorodagi jadidchilik harakati yirik ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Fitrat ushbu harakatning faol ishtirokchisi sifatida ta'limni rivojlantirish va yoshlarni ilg'or g'oyalar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Shu bilan birga, maktablar orqali yoshlarga nafaqat ilm, balki milliy g'urur, mustaqillik va axloqiy qadriyatlar ham singdirildi. Bu jarayon butun Turkiston hududida pedagoglar va ziyolilarni yangi fikrlar bilan boyitdi.

Bo'riboy afandi o'z fikrlarida Buxorodagi ijtimoiy va siyosiy turg'unlikka qarshi umid va ishonchni ifodalab, yoshlarning kelajakda yuksak o'zgarishlarni amalga oshirishiga ishonch bildirgan. Uning so'zlarida yoshlarni kurashga undovchi chuqur ma'no mujassam.

Bo'riboy afandi o'z orzularining kelajak avlodlar tomonidan ro'yobga chiqarilishiga ishongan holda, mustaqil va rivojlangan jamiyat barpo etish zarurligini ta'kidlagan. Bu qarashlar jadidchilik harakati a'zolarining umumiy ijtimoiy-siyosiy islohotlarga bo'lgan intilishini ham aks ettiradi.

Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatidagi faoliyati Buxorodagi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ilmiy-ma'rifiy islohotlar bilan bir qatorda siyosiy erkinlik masalalarini ham ilgari surgan.

"Usuli jadid" maktablarining kengayishi Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysida yosh avlodni zamonaviy usullarda ta'limlash imkonini yaratdi. Ushbu maktablar ilmiy bilimlar bilan birga ma'naviy va ijtimoiy o'zgarishlarni targ'ib etishni maqsad qilgan edi. O'quvchilarni Turkiya, Istanbul kabi markazlarga yuborish orqali yangi ilmiy va madaniy oqimlar bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Fitrat va uning izdoshlarining siyosiy faoliyati, xususan, "Yosh buxoroliklar" harakati Buxoro amirligini inqilobiy o'zgarishlar orqali yangilashni ko'zlagan. Ular eski tizimning samarasizligini tanqid qilib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni isloh qilish zarurligini ta'kidladilar. Fitrat saroydagi boyliklar, qoloqlik, axloqsizlik va bid'atlarga qarshi kurashni o'z faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida belgilagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Abdurauf Fitratning ma'naviy-ma'rifiy merosi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bebaho manba hisoblanadi. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar – insonni ilmiy, axloqli va vatanparvar qilib voyaga yetkazish, milliy o'zlikni anglash hamda xalqni taraqqiyot sari yetaklash kabi muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Fitratning pedagogik qarashlari hozirgi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, ularni dars jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarbiyaviy dasturlar orqali yoshlar ongiga singdirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, Fitrat asarlarida mujassam bo'lgan vatanparvarlik g'oyalarini chuqur o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olvort, E. (2005). Abdurauf Fitrat: ma'naviy meros va falsafiy ta'sir. Nyu-York: Oxford University Press, 102 b.
2. Ismailov, D. (2008). Jadid harakati va uning ijtimoiy-ma'rifiy ta'siri. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 175 b.
3. Mahmudov, U. (2015). Abdurauf Fitrat va uning falsafiy merosi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 124 b.
4. Fitrat, A. (1991). Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Toshkent: O'zbekiston.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.